

## ARAB TILIDA YOZUV MALAKASINI RIVOJLANTIRISHDA TIL KO'NIKMALARI INTEGRATSIYASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Radjabova Muxtasar Davranbekovna**

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

tayanch doktoranti

E-mail: muxtasarradjabova1985@gmail.com

***Annotatsiya.** Mazkur maqola arab tilida yozuv malakasini shakllantirishda yondashuvlar, xususan integrativ yondashuv tasnifiga bag'ishlangan. Shuningdek, maqolada yozuvni o'rgatishda til ko'nikmalari integratsiyasining ahamiyati hamda yozuvning nutq faoliyati turlari tinglab tushunish, gapirish va o'qish bilan bog'liqlik jihatlari yoritildi.*

***Kalit so'zlari:** arab tili, yozuv malakasi, yondashuv, metod, integrativ yondashuv, tinglab tushunish, gapirish, yozuv.*

***Аннотация.** Данная статья посвящена классификации подходов к формированию навыков письма на арабском языке, в том числе интегративному подходу. Также в статье подчеркивается важность интеграции языковых навыков при обучении письму, а также аспектов, связанных с пониманием на слух, говорением и чтением.*

***Ключевые слова:** арабский язык, навыки письма, подход, метод, интегративный подход, аудирование, говорение, письмо.*

***Abstract.** This article is devoted to the classification of approaches to the formation of writing skills in Arabic, including the integrative approach. The article also highlights the importance of integrating language skills in teaching writing and the relationship of writing to the types of speech activities of listening, speaking, and reading.*

***Key words:** Arabic language, writing skills, approach, method, integrative approach, listening, speaking, writing.*

Dunyo tajribasida chet tillarni o'rgatishda turli yondashuv va metodlar ishlab chiqilgan bo'lib, ularning doimiy takomillashuvi zamonaviy pedagogikaning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, arab tilini chet tili sifatida o'rgatish jarayonida yondashuvlar masalasi bugungi kunda ilmiy tadqiqotlar doirasida dolzarb bo'lib qolmoqda.

Xorijiy tillarni o'qitish metodikasida aynan yozuvni o'rgatishda ham turli xil yondashuvlar mavjud. Y.N.Solovova yozuvni o'rgatishda uchta yondashuvni quyidagicha tasniflagan:

1. Direktiv (rasmiy)yondashuv. Qo'yilgan maqsad bexato yozish, mazmun esa ikkinchi darajaga o'tadi.

2. Lingvistik yondashuv. Bu yondashuv yozma nutq jarayonini qat'iy nazorat qilish va ko'plab retseptiv-reproduktiv mashqlar bilan tavsiflanadi.

3. Ijodiy yondashuv. Yondashuvning maqsadi talabalarning individual ijodiga asoslangan matn yaratishdir. [9; 314]

Yozuvni o'rgatishda integrativ yondashuv muallifi L.K. Mazunova bo'lib, ushbu yondashuvga olim quyidagicha ta'rif beradi: integrativ yondashuv-bu yozuvni tizimli o'rganish natijasida ishlab chiqilgan chet tilida yozuv madaniyatini o'zlashtirish strategiyasi. Ushbu yondashuv talabalarda muqobil fikrlashni rivojlantirish uchun ko'proq imkoniyatlarni o'z ichiga oladi. [4;165]

Yozuvni o'rgatish bo'yicha taklif etilgan yondashuvlarning har biri o'ziga xosligi va ahamiyati bilan ajralib turadi. Fikrimizcha, arab tilida yozuv va yozma nutqni o'qitishda yuqorida keltirilgan yondashuvlardan ongli yondashuv, kommunikativ yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, ijodiy yondashuv va integrativ yondashuvlar muhim hisoblanadi. Aynan shu yondashuvlardan nutq faoliyatining barcha turlarining o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda, ham produktiv ham retseptiv til ko'nikmlarini kompleks o'rgatishga qaratilgan integrativ yondashuv arab tilida yozuv malakasini shakllantirish va rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega.

So'nggi yillarda integratsiya so'zi bilan integrativ yondashuv birikmasi ham keng qo'llanib kelinmoqda. Integrativ yondashuv turli fanlardan olingan bilimlar, ko'nikmalar va tajribalarni hisobga olish, tayanish, birlashtirish va ko'nikmalarni baravar rivojlantirishni nazarda tutadi. M.N.Berulova, D.I.Zverev, G.F.Fedoretslar integratsiya jarayonlarini o'rganar ekan, ta'limga integrativ yondashuv turli o'quv fanlari mavzulari o'rtasida intensiv ma'lumotlar almashinuvini ta'minlashini ta'kidlab o'tadilar. [1; 42]

Bizningcha, arab tilida yozuv malakasini shakllantirish va rivojlantirishda aynan yozuvni boshqa nutq faoliyati turlari bilan integratsiyalash, o'z navbatida talabalarni yozuv texnikasini mukammal egallashlari hamda arab tilida fikrlarni yozma bayon etish jarayonida mustaqil fikrlab, ijodiy yondashishlariga yordam beradi.

Olimlarning yozuv ko'nikmasini boshqa nutq faoliyati turlari bilan o'zaro bog'liqligi haqida talaygina fikrlari mavjud. Shu o'rinda bir qator olimlar yozuvni integrativ yondashuv asosida o'qitish borasida ijobiy fikrlarni bildiradilar. Jumladan, Sanches yozuvni integrativ yondashuv asosida o'qitish talabalarga tildan kommunikativ tarzda foydalanish imkonini berishini, yozuv amaliyoti har bir nutq faoliyati bilan chambarchas bog'liq ekanligini hamda nutq faoliyati turlarining doimiy integratsiyasi yordamida yozuv mashqlarida samarali natijalarga erishish mumkinligini ta'kidlaydi. Demyanenko va Lazerenkolar esa yozuv ko'nikmasini o'qish ko'nikmasi bilan bir xil kommunikativ kodga asoslangani sababli bog'liq ekanligini ta'kidlab o'tadilar.[2;35] Arabshunos olim Nur Hafizan arab tilida yozuvga o'rgatish talabalarda o'qish ko'nikmasi shakllangandan so'ng boshlash zarurligini ta'kidlaydi. Olimning ushbu fikrini arab tilshunosi Fatima Samah ham qo'llab quvvatlaydi va o'quvchilarda yozma nutqni rivojlanishi uchun ularda nafaqat o'qish balki o'qib tushunish ko'nikmasi shakllanishi zarurligi haqida o'z tadqiqotida yozadi. [7;65]

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, uzoq vaqt davomida gapirish, tinglash va o'qish til o'rganuvchilarning yozuv malakasini yaxshiroq shakllanishiga va rivojlanishiga yordam beradi, shuningdek, yozuv mashqlari esa mantiqiy fikrlashlariga

ko'maklashadi. Matn yozish jarayoni nafaqat yozuv aktining o'zini, balki boshqa nutq faoliyati turlarini ham o'z ichiga oladi. Talabalar matn yozganda, ular aksriyat hollarda ma'lumot, g'oyalar olish uchun tinglash, gapirish va o'qishdan foydalanadilar. Natijada ta'lim oluvchilar ma'lumotlarni tahlil qilishni o'rganadilar. Jumladan, audio yozuvlarni tinglash va matnlarni o'qish yozma matn uchun g'oyalar bersa, og'zaki muhokama qilish esa tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi. [8;216]

Bu borada B.V.Bellev yozma nutq og'zaki nutqsiz mavjud bo'lmasligini, odam yozganda, u doimo nima yozganini o'ziga aytishini, bundan tashqari, og'zaki nutqni rivojlantirish boshidanoq ko'p jihatdan yozma nutqni rivojlantirish vazifalariga muvofiq shakllanishini ta'kidlaydi.

Arabshunos olim Ibragimov esa yozuv va tinglab tushunish ko'nikmalari o'rtasidagi bog'liqlikni quyidagicha izohlaydi: "Arab tilini o'rgatishda tinglab tushunishning asosiy mexanizmlaridan eshitish muhim ahamiyatga ega. Tinglab tushunish yozuv malakasini rivojlanishida asos hisoblanadi. Sababi tinglab-tushunishni shakllantirmasdan turib, so'zni tovushlarga to'g'ri ajratish yoki tovushlarni harflar bilan belgilash mumkin emas, ya'ni ongli yozish harakati amalga oshirilmaydi." [3;88] Albatta, tinglab tushunish nafaqat yozuv texnikasini balki yozma nutqni shakllantirishda asosiy vosita bo'luvchi malakalardan biridir. Yozma nutqni tinglab tushunish bilan integratsiyasi borasida tadqiqot olib borgan, G.Maru va Gh.Pikirang bu borada shunday deydi: Tinglab tushunish talabalarga ma'lumotlarni qayta ishlashga yordam beruvchi idrok etish qobiliyatidir. Tinglab-tushunish atrof-muhitni talqin qilishda muhim jarayon bo'lib, ma'lumotlarni mulohaza qilish, eshitganlarini idrok etish va ularga yozma va og'zaki javob berish imkonini beradi. [5;22]

Yozuv va o'qish integratsiyasi rus lingvodidaktikasida L.V. Shcherba asarlarida ham o'z ifodasini topgan. Olim yozuvni o'qish yordamida shakllantirish samarali natija berishini aytib, avval o'qib tushunilgan matnga asoslanib talabalarni yozma nutqqa o'qitish g'oyasini berdi. [6;115]

Demak, yozuvni o'rgatishda integrativ yondashuv talabalarning lug'at boyligini oshirish, grammatik qoidalarni o'rganish, matn tuzilishini tushunish, tahlil qilish va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish orqali yozuv malakasini sezilarli darajada yaxshilash imkonini beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. Берулава М.Н. Интеграция содержания образования.-М: Совершенство, 1998.-192с
2. Зекри Мунир. Методика обучения письменной речи в проблемы контроля уровня ее сформированности на занятиях по русскому языку в условиях арабской языковой среды. Диссер... канд. пед.наук.-Москва 1985. -150 с
3. Ибрагимов И. Дж. Обучение основам владения арабским языком: Дисс... канд. пед. наук.-М. :РГБ, 2003.- 131с
4. Мазунова, Л. К. Система овладения культурой иноязычного письма в языковом вузе: дис. ... доктора пед. наук: 13.00.02 / Мазунова Лидия Константиновна. – М., 2005. – 353 с.

5. Maru, M. M. "Integrating writing with listening in EFL class:a systematic review". Advances in social science, education and humanities research, volume 477. 222-226
6. Нужа И.В, Щемелева И.Ю. Обучение письму через чтение в курсе английского языка. Вестник Северного (Арктического) Федерального университета. 2013. №5. С113-122
7. Nur Hafizan. Pengguan imitasi Dalam Penulisan Karangan. Bahasa arab dalam kalangan Pelajar Universiti. Kualalumpur- 2015.- 144b
8. Fantahun Kitila. Sherif Ali. Ebissa Bekele. Effects of Teaching Writing Through Integrated Skills on Students' Performance as Compared to a Non-Integrated One: A Case of Grade Eleven at Sekela Secondary School. Journal of Language Teaching and Research, Vol. 14, No. 1, pp. 215-223, January 2023
9. Штанько, Е.В. Совершенствование умений и навыков письменный речи у студентов изучающих английский язык. «Молодой учёный» №12(71) .2014. 314-318с
10. Kamala Salixovna Kodirova (2021) "PHONETIC INTERFERENCE – AS A RESULT OF THE INTERACTION OF LANGUAGES", Current Research Journal of Philological Sciences, 2(10), pp. 63–66. doi: 10.37547/philological-crjps-02-10-13.